



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шаминашур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



AGRAR MAHSULOTLAR TA'MINOT ZANJIRIDA TRANSAKSION XARAJATLARNI QISQARTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY YO'NALISHLARI

Olimova Bahora Shuhratovna

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОКРАЩЕНИЯ ТРАНСАКЦИОННЫХ ИЗДЕЖЕК В ЦЕПОЧКЕ ПОСТАВОК АГРАРНОЙ ПРОДУКЦИИ

Олимова Бахора Шухратовна

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC DIRECTIONS FOR REDUCING TRANSACTION COSTS IN THE AGRICULTURAL SUPPLY CHAIN

Olimova Bakhora Shukhratovna

Received: June 1, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida yuzaga keladigan transaktsion xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaktsion xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotda institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi axborot asimmetriyasi, shartnomaviy munosabatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika infratuzilmasining cheklanganligi hamda raqamli texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi transaktsion xarajatlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu asosda agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, raqamli platformalarni keng joriy etish, logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish va shartnomaviy munosabatlarni institutsional jihatdan mustahkamlash orqali transaktsion xarajatlarni kamaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Agrar mahsulotlar, ta'minot zanjiri, transaktsion xarajatlar, institutsional iqtisodiyot, logistika samaradorligi, qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi, raqamli texnologiyalar, shartnomaviy munosabatlar, axborot asimmetriyasi, agribiznes, logistika markazlari, iqtisodiy samaradorlik

Abstract: This article analyzes the economic essence of transaction costs arising in the agricultural supply chain, their structure, and their impact on the process of delivering agricultural products from producers to consumers. The aim of the study is to identify organizational and economic directions for reducing transaction costs in the agricultural supply chain and to assess their effectiveness. The research employed institutional analysis, comparative analysis, system approach, and economic-statistical methods. The results of the study show that information asymmetry among supply chain participants, insufficient development of contractual relations, limited logistics infrastructure, and inadequate implementation of digital technologies are the main factors increasing transaction costs. Based on these findings, scientific and practical recommendations were developed to reduce transaction costs by promoting cooperation relations, widely implementing digital platforms, improving logistics centers, and strengthening institutional contractual mechanisms in the agricultural supply chain.

Keywords: Agricultural products, supply chain, transaction costs, institutional economics, logistics efficiency, agricultural cooperation, digital technologies, contractual relations, information asymmetry, agribusiness, logistics centers, economic efficiency.



Аннотация: В данной статье анализируется экономическая сущность транзакционных издержек в цепочке поставок сельскохозяйственной продукции, их структура, а также влияние на процесс доставки продукции от производителя к потребителю. Цель исследования заключается в определении организационно-экономических направлений сокращения транзакционных издержек в цепочке поставок аграрной продукции и оценке их эффективности. В исследовании использовались методы институционального анализа, сравнительного анализа, системного подхода и экономико-статистические методы. Результаты исследования показывают, что информационная асимметрия между участниками цепочки поставок, недостаточное развитие договорных отношений, ограниченность логистической инфраструктуры и низкий уровень внедрения цифровых технологий являются основными факторами роста транзакционных издержек. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации по снижению транзакционных издержек путем развития кооперационных связей, широкого внедрения цифровых платформ, совершенствования логистических центров и укрепления институциональных договорных механизмов.

Ключевые слова: Аграрная продукция, цепочка поставок, транзакционные издержки, институциональная экономика, эффективность логистики, сельскохозяйственная кооперация, цифровые технологии, договорные отношения, информационная асимметрия, агробизнес, логистические центры, экономическая эффективность.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda iste'mol talabi tarkibining o'zgarishi agrar mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish tizimlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda agrar mahsulotlar ta'minot zanjirining samarali faoliyat yuritishi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlariga, balki mahsulot harakati davomida yuzaga keladigan transaksion xarajatlar darajasiga ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Institutsional iqtisodiyot nazariyasida transaksion xarajatlar tushunchasi ilk bor iqtisodchi olim Ronald Coase tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi bitimlarni amalga oshirish, axborot izlash, muzokaralar olib borish, shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Keyinchalik Oliver Williamson tomonidan rivojlantirilgan transaksion xarajatlar nazariyasi bozor munosabatlarining samaradorligini baholashda muhim metodologik asoslardan biriga aylandi. Mazkur nazariyaga ko'ra, transaksion xarajatlarning yuqori darajasi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga, resurslardan foydalanish natijadorligining kamayishiga va bozor infratuzilmasi rivojlanishining sekinlashishiga olib keladi.

Agrar sektorda transaksion xarajatlar boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mavsumiyligi, ishlab chiqaruvchilarning hududiy tarqoqligi, mahsulot sifatining bir xil emasligi, narxlar o'zgaruvchanligi hamda bozor axborotlarining yetarli darajada shaffof emasligi sabab bo'ladi. Natijada ishlab chiqaruvchilar, vositachilar, qayta ishlovchi korxonalar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda qo'shimcha xarajatlar yuzaga keladi. Bu esa mahsulot tannarxining oshishiga, ishlab chiqaruvchilar daromadining kamayishiga va yakuniy iste'molchi uchun narxlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. So'nggi yillarda dunyo amaliyotida agrar mahsulotlar ta'minot zanjirini raqamlashtirish, logistika markazlarini rivojlantirish, elektron savdo maydonchalarini joriy etish hamda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish orqali transaksion

xarajatlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda "aqlli logistika", elektron kontraktatsiya va raqamli monitoring tizimlarining qo'llanilishi mahsulot harakati jarayonida axborot almashinuvi tezligini oshirib, bitim xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, agrologistika infratuzilmasini rivojlantirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, agrar mahsulotlarni yetishtirishdan tortib iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarda vositachilik bo'g'inlarining ko'pligi, logistika xizmatlari xarajatlarining yuqoriligi, shartnomaviy munosabatlarning ayrim hollarda yetarli darajada takomillashmaganligi va axborot oqimlarining samarali tashkil etilmaganligi transaksion xarajatlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat agrar mahsulotlar bozorining samaradorligini oshirish va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini kuchaytiradi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarni qisqartirish muammosi iqtisodiy adabiyotlarda institutsional iqtisodiyot, logistika menejmenti hamda agrar iqtisodiyot kesimida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar asosan bitimlar samaradorligi, bozor institutlarining roli va ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi muvofiqlashuv mexanizmlariga qaratilgan. Transaksion xarajatlar nazariyasining asoschilari sifatida Ronald Coase bozor va firma o'rtasidagi tanlovni aynan bitim xarajatlari orqali izohlagan. Uning fikricha, agar bozor orqali amalga oshiriladigan bitim xarajatlari yuqori bo'lsa, iqtisodiy subyektlar ishlab chiqarishni firma ichida tashkil etishga intiladi. Bu yondashuv keyinchalik institutlar iqtisodiyoti rivojlanishiga asos bo'ldi. Mazkur nazariya Oliver Williamson tomonidan yanada chuqurlashtirilib, transaksion xarajatlar iqtisodiy munosabatlarning asosiy determinantlaridan biri sifatida talqin qilingan. Williamson transaksiyalarni boshqarish tuzilmalari (bozor, ierarxiya va gibridd shakllar) orqali xarajatlarni minimallashtirish mumkinligini asoslab bergan. Uning "Governance Structures" yondashuvi



agrar ta'minot zanjirlarida ham vositachilik institutlari va kooperatsiya shakllarining ahamiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Douglass North institutlar evolyutsiyasi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, rasmiy va norasmiy institutlar transaksion xarajatlarni belgilovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Agrar sektorda bu yondashuv shartnomaviy intizom, mulk huquqlari himoyasi va bozor shaffofligi kabi omillarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agrar ta'minot zanjiri va logistika samaradorligi bo'yicha Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan "qiymat zanjiri" konsepsiyasi ham muhim nazariy asos hisoblanadi. Porter ga ko'ra, mahsulotning yakuniy qiymati har bir bosqichdagi qo'shilgan qiymat va xarajatlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, logistika, ta'minot va tarqatish jarayonlari raqobat ustunligini belgilaydi. Agrar iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlarda John H. Davis va Ray A. Goldberg agribiznes tizimi va vertikal integratsiya konsepsiyasini ishlab chiqib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan jarayon yagona tizim sifatida qaralishi lozimligini asoslagan. Ularning yondashuviga ko'ra, agrar sektor samaradorligi ishlab chiqarishdan ko'ra ko'proq ta'minot zanjiri boshqaruvi sifatiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida transaksion xarajatlarni qisqartirish masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Xususan, elektron savdo platformalari, aqlli logistika tizimlari va raqamli shartnomalar (smart contracts) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar axborot asimmetriyasini kamaytirish va bitim xarajatlarini optimallashtirish imkonini ko'rsatmoqda. Bu yo'nalishda zamonaviy iqtisodchilar agrar sektorni raqamlashtirish orqali vositachilik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ta'kidlamogda. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, transaksion xarajatlarni kamaytirish muammosi ko'p omilli bo'lib, u institutsional muhit, logistika infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar darajasi hamda ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi koordinatsiya samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, agrar mahsulotlar ta'minot zanjiri bo'yicha kompleks yondashuv va amaliy yechimlarga ehtiyoj mavjudligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarini ilmiy asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida institutsional iqtisodiyot, ta'minot zanjiri boshqaruvi hamda agrar iqtisodiyot nazariyalariga tayangan holda tizimli va ko'p omilli tahlil amalga oshirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini Ronald Coase va Oliver Williamson tomonidan ishlab chiqilgan transaksion xarajatlar nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariya asosida agrar mahsulotlar harakatida yuzaga keladigan bitim xarajatlari (axborot izlash, muzokara, shartnoma tuzish va nazorat qilish xarajatlari) tizimli tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. Tizimli yondashuv usuli. Agrar mahsulotlar ta'minot zanjiri yagona tizim sifatida qaralib, ishlab chiqarish, logistika, saqlash, qayta ishlash va iste'mol bosqichlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv transaksion xarajatlarning qaysi bosqichlarda yuqori shakllanishini aniqlash imkonini berdi.

2. Institutsional tahlil usuli. Bozor ishtirokchilari o'rtasidagi rasmiy va norasmiy institutlar, shartnomaviy munosabatlar hamda mulk huquqlari himoyasi darajasi o'rganildi. Douglass North yondashuviga tayangan holda institutlarning samaradorligi transaksion xarajatlarga ta'siri baholandi.

3. Qiyosiy tahlil usuli. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar agrar ta'minot zanjiri modellari solishtirilib, logistika tizimi, raqamlashtirish darajasi va kooperatsiya mexanizmlarining farqlari aniqlandi.

4. Iqtisodiy-statistik tahlil usuli. Agrar sektor bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar asosida logistika xarajatlari, vositachilik ulushi hamda mahsulot yo'qotishlari tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichlar transaksion xarajatlarning bilvosita indikatorlari sifatida baholandi.

5. Mantiqiy umumlashtirish va sintez usuli. Olingan natijalar asosida agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarni kamaytirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlar shakllantirildi va umumiy ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqotda ta'minot zanjiri boshqaruvi (Supply Chain Management – SCM) konsepsiyasi asosida Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan qiymat zanjiri yondashuvidan ham foydalanildi. Bu yondashuv mahsulotning har bir bosqichida yaratiladigan qiymat va xarajatlarni nisbatini baholash imkonini berdi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarni qisqartirish bo'yicha aniq xulosalar chiqarish imkonini berdi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlar ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan jarayonda turli bosqichlarda shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu xarajatlar asosan axborot yetishmasligi, vositachilar sonining ko'pligi, logistika infratuzilmasining samarasizligi hamda shartnomaviy munosabatlarning zaifligi hisobiga yuzaga keladi. Tahlillar asosida agrar ta'minot zanjiri 4 asosiy bosqichga ajratildi: ishlab chiqarish, yig'ish va saqlash, logistika hamda sotuv (chakana ulgurji bozor). Har bir bosqichda transaksion xarajatlarning ulushi turlicha bo'lib, eng yuqori xarajatlar logistika va vositachilik bosqichlarida kuzatiladi. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tez buziluvchanligi va bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar va kooperatsiya tizimlari joriy etilgan hududlarda transaksion xarajatlar sezilarli darajada kamaygan. Bu esa axborot asimmetriyasini qisqartirish va bitimlar tezligini oshirish orqali erishilgan. Quyidagi jadvalda agrar mahsulotlar ta'minot



zanjirining asosiy bosqichlarida transaksion xarajatlar tarkibi va ularning nisbiy ulushi tahlil qilingan:

1-jadval

Agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlar tarkibi va ulushi (baholangan tahlil)

Ta'minot bosqichi	Asosiy transaksion xarajatlar turi	Xarajat darajasi (nisbiy)	Asosiy muammo omillari
Ishlab chiqarish	Axborot izlash, resurslar bo'yicha kelishuvlar	O'rtacha	Bozor axborotining yetishmasligi
Yig'ish va saqlash	Shartnoma tuzish, sifat nazorati	O'rtacha-yuqori	Standartlashtirish pastligi
Logistika	Transport, vositachilik, kechikishlar	Yuqori	Infratuzilma yetishmasligi
Sotuv (bozor bosqichi)	Muzokara, vositachi komissiyasi, marketing xarajatlari	Yuqori	Vositachilar ko'pligi, raqobat nomutanosibligi

Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori transaksion xarajatlar logistika bosqichida kuzatiladi (nisbiy daraja — yuqori). Bu bosqichda transport xarajatlari bilan birga vositachilar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar ham qo'shimcha xarajatlarni oshiradi. Shu bilan birga, sotuv bosqichida ham vositachilik komissiyalari va marketing xarajatlari umumiy xarajatlarni sezilarli oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan ta'minot zanjiri (elektron savdo platformalari, onlayn kontrakt tizimlari) mavjud hududlarda transaksion xarajatlar 15–30% gacha kamayishi mumkin. Bu holat Oliver Williamson nazariyasida ta'kidlangan “gibrid boshqaruv tuzilmalari” samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Umuman olganda, olingan natijalar agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarni kamaytirish uchun uch asosiy yo'nalish muhim ekanini ko'rsatdi:

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida transaksion xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllanish omillari hamda ularni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, agrar sektorda transaksion xarajatlar asosan axborot asimmetriyasi, vositachilar ko'pligi, logistika infratuzilmasining yetarli emasligi va shartnomaviy munosabatlarning zaifligi natijasida yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, agrar mahsulotlar ta'minot zanjirida eng yuqori transaksion xarajatlar logistika va sotuv bosqichlarida shakllanadi. Raqamli texnologiyalar va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari joriy etilgan sharoitda esa ushbu xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, Ronald Coase va Oliver Williamson nazariyalariga tayangan holda, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi samarali muvofiqlashuv mexanizmlari transaksion xarajatlarni kamaytirishda asosiy omil ekanligi tasdiqlandi.

1. Agrar mahsulotlar bozorida raqamli savdo platformalarini keng joriy etish orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish.

2. Logistika markazlari va sovutkichli ombor infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahsulot yo'qotishlarini qisqartirish.

3. Fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiya va klaster tizimini kuchaytirish.

4. Elektron shartnomalar (e-contract) tizimini joriy etish orqali bitim xarajatlarni optimallashtirish.

5. Vositachilik bo'g'inlarini qisqartirish va to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi–iste'molchi aloqalarini kengaytirish.

6. Douglass North yondashuviga muvofiq institutsional muhitni takomillashtirish va shartnomaviy intizomni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] Coase, R. H. (1937). *The Nature of the Firm*. *Economica*.

<https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x>

[2] Williamson, O. E. (1985). *The Economic Institutions of Capitalism*. Free Press.

<https://www.jstor.org/stable/10.2307/j.ctt7s2j6>

[3] North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.

<https://www.cambridge.org/core/books/institutions-institutional-change-and-economic-performance/>

[4] Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.

<https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=193>

[5] FAO (Food and Agriculture Organization). *Agri-food Supply Chain Reports*.

<https://www.fao.org/publications/en/>

[6] World Bank. *Agricultural Supply Chains and Value Addition Reports*.

<https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture>

[7] OECD. *Food Supply Chain Efficiency and Policy Analysis*.

<https://www.oecd.org/agriculture/>

[8] Uzbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo'jaligi va agrar bozor ma'lumotlari. <https://stat.uz>



Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Olimova Bahora Shuhratovna Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası assistenti / Олимова Бахора Шухратовна Ассистент кафедры «Бизнес и менеджмент» Каршинского государственного

технического университета / Olimova Bahora Shuhratovna Assistant Lecturer of the Department “Business and Management”, Karshi State Technical University

E-mail: olimovabahora393@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-2281-4782>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz